

Ramazon oyi 2 apreldan boshlanadi



Bu haqda Prezident qarori qabul qilindi.

«1. 2022 yil muborak Ramazon oyining boshlanishi 2 aprel kuniga to'g'ri kelishi haqidagi O'zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda jamoat tashkilotlari bilan birgalikda Ramazon oyini milliy an'ana va qadriyatlarga mos va munosib tarzda o'tkazishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirsin», — deyiladi qarorda.